

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI**

NASIROV DAVRANBEK PALVANNAZIROVICH

**O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA SOTSIOLINGVISTIK
VARIATIVLIKNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI TAMOYILLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Nasirov Davranbek Palvannazirovich

O‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqini
tamoyillari..... 3

Насиров Давранбек Палванназирович

Принципы лексикографического описания социолингвистической
вариативности в узбекском и немецком языках..... 23

Nasirov Davranbek Palvannazirovich

Principles of lexicographic description of sociolinguistic variability in the
Uzbek and German languages..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 52

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI**

NASIROV DAVRANBEK PALVANNAZIROVICH

**O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA SOTSIOLINGVISTIK
VARIATIVLIKNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI TAMOYILLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4879 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi www.namsifl.uz hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ziyayeva Sevara Anvarovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abduvaliyev Muhammadjon Arabovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ro'ziyev Yarash Bozorovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengashning "___"_____ 2025-yil soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Namangan viloyati Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100a-uy. Tel: (99869) 442-11-67; e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100a-uy. Tel: (99869) 442-11-67; e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi №___ - raqamli reestr bayonnomasi).

N.T.Dosbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Umrzoqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv sharoitida turli madaniyat va ijtimoiy qatlamlar vakillari o'rtasida muloqot jarayonlarining intensivlashuvi, tilning ijtimoiy va mintaqaviy tafovutlari tobora yaqqolroq namoyon bo'layotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ko'p tilli va madaniy xilma-xil jamiyatlarda nutqiy faoliyatning sotsiolingvistik, pragmatik, kognitiv va lingvomadaniy o'ziga xos xususiyatlarini kompleks o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarb ilmiy yo'nalishga aylangan. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"¹. Xususan, sun'iy intellekt, korpus lingvistikasi va raqamli leksikografiya sohalaridagi so'nggi yutuqlar tilning ijtimoiy kontekstdagi o'zgarishlarini tahlil qilish va ularni lug'atlarda aks ettirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Dunyo tilshunosligida ijtimoiy omillar til xilma-xilligi va o'zgarishlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish sotsiolingvistik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Sotsiolingvistik variativlikni tadqiq qilish til siyosati va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun, ayniqsa ko'p tilli va multimadaniy jamiyatlarda muhim ahamiyatga ega, bu globallashuv ta'siri ostida sezilarli o'zgarishlarga uchrayotgan o'zbek tili va ko'plab dialekt va variantlarga ega bo'lgan nemis tili kontekstida ayniqsa muhimdir. Til xilma-xilligini aks ettiruvchi lug'at va leksikografik resurslarni ishlab chiqish multimadaniy jamiyat sharoitida muhim vazifa hisoblanadi. O'zbek va nemis tillari o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni o'rganish madaniyatlar o'rtasidagi muloqot va o'zaro munosabatni yaxshilashga ko'maklasha oladi.

Yurtimiz tilshunosligi va lug'atshunosligida sotsiolingvistik variativlikni tavsiflash va leksikografik talqin asoslarini tadqiq qilish o'ta muhim ahamiyatga ega. Turli tizimli tillarga mansub o'zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikni qiyosiy tahlili ushbu tillarda gapiruvchi xalqlarning ijtimoiy madaniyatini chuqurroq o'rganishga, ularning madaniyatini, jumladan urf-odatlarini, an'analari, rasm-rusum va marosimlarini, ularning leksikografik ifodalanilishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib berishga imkon beradi. Vaholanki, bugungi globallashuv va xalqaro turizm rivojlanayotgan jarayonda solum urf-odatlarining representatsiyasi masalasi qiyosiy tipologiya va tarjimashunoslik sohalarida ko'plab izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-okt-abrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-noyabrdagi PF 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi qaror va farmonlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon lingvistikasida sotsiolingvistik variativlik masalasi tilshunoslikda M. Halliday, A. Makintosh, R. Strevens, R. Billington, L. Greysides, A. Fitzsimon, S.M. Ervin-Tripp, J.A. Fishman² kabi ko‘plab olimlarning diqqat markazida bo‘lib, til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega. M. Halliday, A. McIntosh, R. Strevens³ kabi olimlar tilning ijtimoiy kontekstdagi funksional xususiyatlarini o‘rganib, sotsiolingvistik variativlikning nazariy asoslarini shakllantirdilar. U. Labov o‘zining asarlarida⁴ ijtimoiy sinf, yosh va etnik mansublik kabi omillar asosida til variantlarini tahlil qilish modelini ishlab chiqdi. J.A. Fishman va S.M. Ervin-Tripp⁵ bilingvizm va til kontaktlari kontekstida variativlikni chuqurroq o‘rgandilar.

MDH mamlakatlari tilshunosligida L.P. Krisin, N.M. Firsova, Bagana, Ye.V. Bondarenko, O.O. Chernova, S.N. Dubrovina⁶ va boshq. shug‘ullanishgan.

² Halliday M.A.K., McIntosh A., Strevens P. The Linguistic Sciences and Language Teaching. – London: Longmans, 1964. – 322 p.; Billington R., Strawbridge S., Greensides L., Fitzsimon A. Culture and Society. – London: Macmillan, 1991. – 231 p.; Ervin-Tripp S.M. Sociolinguistics. – In: Advances in the sociology of language. – The Hague, 1971. – 219 p.; Fishman J.A. The sociology of language. – Rowley, 1973. – P. 15-53.

³ Halliday M.A.K., McIntosh A., Strevens P. The Linguistic Sciences and Language Teaching. – London: Longmans, 1964. – 322 p.

⁴ Labov W. The social stratification of english in New York City. – The Edinburgh Building, Cambridge University Press, UK, 2006. – 485 p.; Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 344 p.

⁵ Fishman J.A. The sociology of language. – Rowley, 1973. – P. 15-53; Ervin-Tripp S.M. Sociolinguistics. – In: Advances in the sociology of language. – The Hague, 1971. – 219 p.

⁶ Крысин Л.П. Социолингвистическое исследование вариантов современного русского литературного языка: Автореф. дисс. ... докт филол. наук. – М., 1980. – 30 с.; Фирсова Н.М. Языковая вариативность и национально-культурная специфика речевого общения в испанском языке. – М.: Изд-во РУДН, 2000. – 128 с.; Багана Ж., Бондаренко Е.В., Чернова О.О. Теоретические основания изучения проблемы языковой вариативности // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки, 2012. – № 6 (125). – Выпуск 13.

Hususan, L.P. Krisin⁷ so‘zlashuv nutqining ijtimoiy omillarga bog‘liqligini va uning lug‘atlarda aks ettirilishini tahlil qildi. O.I. Brodovich⁸ dialektal farqlarni ijtimoiy va mintaqaviy stratifikatsiya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqdi. V.I. Belikov va V.P. Korovushkin⁹ sotsial dialektlar va substandart leksikaning qiyosiy tahliliga asos soldilar. V.Yu. Mixalchenko¹⁰ 900 dan ortiq termini tizimlashtirib, maxsus sotsiolingvistik variativlik lug‘atlarining yo‘qligini ta’kidladi.

Mamlakatimiz tilshunosligida ham sotsiolingvistik variativlik muammosi tilshunoslikda bir qator olimlar, jumladan A. Berdaliyev, Yu.N. Abdullayev, A.M. Bushuy, H.Dadaboyev, Sh. Usmanova, N. Bekmuhamedova, G. Iskandarova, G‘.X. Raximov, S.A. Ziyayeva¹¹ va boshq. tomonidan o‘rganilgan. A.Berdaliyev¹² ijtimoiy omillarning til me‘yorlariga ta’sirini o‘rgandi. Yu.N. Abdullayev va A.M. Bushuy¹³ tilning sotsiokultural kontekstdagi rolini tahlil qildilar. M.X. Hakimov¹⁴ ko‘p tillilik sharoitida pragmatik variativlikni ko‘rib chiqdilar. S.A. Ziyayeva¹⁵ ta’limda sotsiolingvistik yondashuvlarni takomillashtirish usullarini taklif qildi.

Biroq, ushbu tadqiqotlar asosan sotsiolingvistika, dialektologiya yoki pragmatikaning umumiy jihatlariga qaratilgan bo‘lib, sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqini, ayniqsa o‘zbek va nemis tillari kabi turli tizimli tillar materialida maxsus monografik tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan. Ushbu dissertatsiya avvalgi tadqiqotlardan o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqinini qiyosiy-tipologik tahlil qilish orqali farq qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Nemis va fransuz tillari kafedrasining

– С. 41-49; Дубровина С.Н. Вариативность как универсальное свойство языка // Верхневолжский филологический вестник, 2015. – № 3. – С. 44-48.

⁷ Крысин Л.П. Социолингвистическое исследование вариантов современного русского литературного языка: Автореф. дисс. ... докт филол. наук. – М., 1980. – 30 с.

⁸ Бродович О.И. Дialeктная вариативность английского языка: Аспекты теории. – М.: URSS, 2009. – 194 с.

⁹ Беликов В.И. Задачи социальной лексикографии // Русский язык: исторические судьбы и современность: Тр. и матер. II Междунар. конгр. исследователей рус. яз.. – М.: Изд-во МГУ, 2004. – С. 181-182; Коровушкин В.П. Проблемы лексикографического описания английского и русского просторечия в двуязычных словарях // Новое в лингвистике и методике преподавания иностранных языков в вузе: Матер. научно-метод. конф. Часть II. Доклады. – СПб.: ВИТУ, 1999. – С. 238-258.

¹⁰ Словарь социолингвистических терминов. / Отв. ред. В.Ю. Михальченко. – М.: 2006. – 312 с.

¹¹ Бердалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Хўжанд, 2015. – 180 с.; Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А.М. Язык и общество. – Т.: Фан, 2002. – 161 с.; Дадабоев Х., Усманова Ш. Хорижий социолингвистика. – Тошкент: Университет, 2014. – 134 с.; Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. дисс... – Тошкент, 2011. – 144 б.; Усманова Ш., Бекмухамедова Н., Исқандарова Г. Социолингвистика. – Тошкент: Университет, 2014. – 81 с.; Рахимов Г.Х. Функционирование английского языка в Узбекистане (Социолингвистический и прагматический аспекты): Автореф. докт. дисс. по филол. наукам. – Т., 2018. – 98 с.; Зияева С.А. Методика совершенствования социолингвистической компетенции студентов языковых вузов при обучении немецкому языку. – Ташкент: Фан ва технология, 2019. – 252 с.

¹² Бердалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Хўжанд, 2015. – 180 с.

¹³ Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А.М. Язык и общество. – Т.: Фан, 2002. – 161 с.

¹⁴ Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. дисс... – Тошкент, 2011. – 144 б.

¹⁵ Зияева С.А. Методика совершенствования социолингвистической компетенции студентов языковых вузов при обучении немецкому языку. – Ташкент: Фан ва технология, 2019. – 252 с.

“Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va chet tillar o‘qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqini tamoyillarini aniqlash va o‘xshash va farqli tomonlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

leksikografik talqin tamoyillari haqidagi nazariy bilimlarni tizimlashtirgan holda o‘rganish va o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillarni aniqlash va tavsiflash;

sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqin funksiyalari va yondashuvlarini tahlil qilish orqali ularning lug‘atshunoslikdagi o‘ziga xos konseptual asoslarini aniqlash;

o‘zbek va nemis tillari izohli lug‘atlaridagi sotsiolingvistik variantlar tarkibini statistik va kontent tahlil asosida o‘rganish, jamiyat tabaqalanishi, kasbiy qatlamlar va dialektal tafovutlarni ifodalashdagi farqlarni aniqlash;

sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqin qilish tamoyillari tizimini zamonaviy lug‘atshunoslik talablari asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikning izohli lug‘atlarda aks etilishi tanlangan.

Tadqiqot predmeti sifatida o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqin tamoyillari xizmat qiladi.

Chog‘ishtirilayotgan o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikni tahlil qilish uchun asosiy material manbalari sifatida A.Madvaliyev tahriri ostidagi 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006-2008) hamda “Deutsches Universalwörterbuch: Das umfassende Bedeutungswörterbuch der deutschen Gegenwartssprache”¹⁶ (2019) nemis universal izohli lug‘ati xizmat qildi. O‘zbek tilining ushbu izohli lug‘atida 8903 ta so‘z variantlarini, nemis tili lug‘atida esa 72452 ta sotsiolingvistik variantlar aniqlandi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash metodi, komponent tahlil metodi, chog‘ishtirma metod, sotsiolingvistik tahlil metodi, statistik tahlil metodidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar (til taraqqiyoti omili, til tanqidining rivojlanishi, so‘zlarning konnotativ ma’nolari o‘zgarishi, o‘zlashma so‘zlarga munosabat omili va b.) tizimli ravishda sotsiolingvistik tahlil va lingvistik tavsiflash metodlari yordamida aniqlandi;

o‘zbek va nemis lug‘atshunosligida sotsiolingvistik variativlikka turlicha yondashilganlik, xususan, o‘zbek tilining izohli lug‘atida adabiy me‘yorga moslikka tayangan holda asosan so‘zlashuv, badiiy va kasbiy nutqqa xos bo‘lgan

¹⁶ Ўзбек тили изоҳли луғати / А.Мадвалиев таҳр. ост. 1-5-томлар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008; Deutsches Universalwörterbuch: Das umfassende Bedeutungswörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. – Duden, 2019. – 2144 s.

variantlar, nemis tilining izohli lugʻatida esa jamiyat tabaqalanishi va sotsiolektlarni aks ettiruvchi lisoniy variantlar keng qamrovda qayd etilganligi chogʻishtirma-tipologik tahlil asosida ochib berildi;

oʻzbek tili lugʻatlarida asosan turli ijtimoiy qatlam va kasb egalarining nutqidagi (umumiy 8903 ta sotsiolingvistik variantlarning 34,68%) farqlar koʻproq tavsiflanganligi, nemis tili lugʻatlari uchun dialektal (umumiy 72452 ta sotsiolingvistik variantning 49,24%) farqlarni aks ettirish ustuvor yoʻnalishlardan biri ekanligi statistik maʼlumotlar yordamida dalillandi;

sotsiolingvistik variativlikning toʻlaqonli leksikografik talqini maksimal inklyuzivlik, ijtimoiy va mintaqaviy stratifikatsiya, autentik fiksatsiya, semantik tenghuquqlilik, qoʻllanish shartlari va foydalanuvchiga yoʻnaltirilganlik kabi tamoyillar bilan belgilanishi asoslandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sotsiolingvistik variativlikni yuzaga keltiradigan ijtimoiy omillar aniqlandi;

oʻzbek va nemis tillarining izohli lugʻatlarida sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqin funksiyalari va tamoyillarining tasnifi ishlab chiqildi;

oʻzbek va nemis tillarida sotsiolingvistik oʻzgaruvchilar tizimi tavsiflandi;

chogʻishtirilayotgan tillarning izohli lugʻatlarida sotsiolingvistik variativlikni aks ettirishdagi oʻxshashlik va oʻziga xoslik ochib berildi;

sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqin tamoyillarining takomillashtirilgan tizimi yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qatʼiyligi, ularni dalillovchi maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, toʻplangan material tahlilining ilmiy va metodologik jihatdan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sotsiolingvistik variativlikni yuzaga keltiradigan ijtimoiy omillar ochib berilganligi, sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqin funksiyalari va tamoyillarini tasniflanganligi, oʻzbek va nemis tillarida sotsiolingvistik oʻzgaruvchilar va izohli lugʻatlarda sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqinidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanganligi, shuningdek, sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqin qilish tamoyillari takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari va materiallaridan OTMlarining oʻquv jarayonida oʻzbek va nemis tilshunosligi, ijtimoiy tilshunoslik, lugʻatshunoslik, uslubiyat, dialektologiya, matn lingvistik tahlili fanlaridan maʼruza va seminar mashgʻulotlari, maxsus kurslar ishlab chiqish va oʻtkazishda, dissertatsiya tadqiqoti ishlari, monografiya, darslik va oʻquv qoʻllanmalari yaratishda, maxsus lugʻatlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning nazariy takliflari, amaliy tavsiyalari va xulosalari quyidagilarga tatbiq etilgan:

Dissertatsiyaning ilmiy natijalaridan va materiallaridan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston teleradiokanali” DM “Madaniy-maʼrifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Bedorlik” va “Adabiy

jarayon” dasturlarining ssenariysida 2024-yil mart va noyabr oylaridagi sonlarida tadqiqotga tortilgan sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqin tamoyillarining tasnifi, xususan, o‘zbek va nemis tillari lug‘atlarining tahlili orqali sotsiolingvistik variativlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar masalasiga bag‘ishlangan tahliliy fikrlari va nazariy xulosalaridan foydalanildi. (O‘zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 10-dekabrda 04-36-1975-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi tilning sotsiolingvistik variativligini o‘rganish, o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar (til taraqqiyoti omili, til tanqidining rivojlanishi, so‘zlarning konnotativ ma’nolari o‘zgarishi, o‘zlashma so‘zlarga munosabat omili va b.) aniqlanganligi, o‘zbek va nemis lug‘atshunosligida sotsiolingvistik variativlikka turlicha yondashilganlik, xususan, o‘zbek tilining izohli lug‘atida adabiy me’yorga moslikka tayangan holda asosan so‘zlashuv, badiiy va kasbiy nutqqa xos bo‘lgan variantlar, nemis tilining izohli lug‘atida esa jamiyat tabaqalanishi va sosiolektlarni aks ettiruvchi lisoniy variantlar keng qamrovda qayd etilganligi kabi masalalarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqand davlat chet tillar institutida filologiya fanlari nomzodi, dotsent F.Sh.Ruzikulov rahbarligida bajarilgan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovasion tadqiqot loyihasida o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar (til taraqqiyoti omili, til tanqidining rivojlanishi, so‘zlarning konnotativ ma’nolari o‘zgarishi, o‘zlashma so‘zlarga munosabat omili va b.), o‘zbek va nemis lug‘atshunosligida sotsiolingvistik variativlikka turlicha yondashilganlik, xususan, o‘zbek tilining izohli lug‘atida adabiy me’yorga moslikka tayangan holda asosan so‘zlashuv, badiiy va kasbiy nutqqa xos bo‘lgan variantlar, nemis tilining izohli lug‘atida esa jamiyat tabaqalanishi va sosiolektlarni aks ettiruvchi lisoniy variantlar keng qamrovda qayd etilganligi, o‘zbek tili lug‘atlarida asosan turli ijtimoiy qatlam va kasb egalarining nutqidagi (umumiy 8903 ta sotsiolingvistik variantlarning 34,68%) farqlar ko‘proq tavsiflanganligi, nemis tili lug‘atlari uchun dialektal (umumiy 72452 ta sotsiolingvistik variantning 49,24%) farqlarni aks ettirish ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligi, sotsiolingvistik variativlikning to‘laqonli leksikografik talqini maksimal inklyuzivlik, ijtimoiy va mintaqaviy stratifikatsiya, autentik fiksatsiya, semantik tenghuquqlilik, qo‘llanish shartlari va foydalanuvchiga yo‘naltirilganlik kabi tamoyillar bilan belgilanishi borasida olingan natijalaridan foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 12-dekabrda 2732/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha bo‘yicha tayyorlangan virtual resurslar mazmunini boyitish imkonini bergan.

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining 2022/2023-yillarda bajarilgan KA 107/2022-2023 raqamli Erasmus+ mobility program loyihasi doirasida tadqiqotchi Nasirov Davranbek Palvannaziroviching “O‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqini tamoyillari” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ilmiy natijalaridan foydalanildi.

(Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining 2025-yil 9-yanvardagi 47-03-sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqot loyihasi doirasida o'zbek tilining izohli lug'atida adabiy me'yorga moslikka tayangan holda asosan so'zlashuv, badiiy va kasbiy nutqqa xos bo'lgan variantlar, turli ijtimoiy qatlam va kasb egalarining nutqidagi (umumiy 8903 ta sotsiolingvistik variantlarning 34,68%) farqlar ko'proq tavsiflanganligi, nemis tilining izohli lug'atida esa jamiyat tabaqalanishi va sotsiolektlarni aks ettiruvchi lisoniy variantlar keng qamrovda qayd etilganligi, dialektal (umumiy 72452 ta sotsiolingvistik variantning 49,24%) farqlarni aks ettirish ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligi, sotsiolingvistik variativlikning to'laqonli leksikografik talqini maksimal inklyuzivlik, ijtimoiy va mintaqaviy stratifikatsiya, autentik fiksatsiya, semantik tenghuquqlilik, qo'llanish shartlari va foydalanuvchiga yo'naltirilganlik kabi tamoyillar bilan belgilanishi borasida olingan natijalaridan foydalanilgan. Natijada loyiha bo'yicha tayyorlangan resurslar mazmuni boyitilgan.

“German-Usbekische Gesellschaft e.V.” jamiyati tomonidan O'zbekiston Respublikasining Germaniya Federativ Respublikasidagi elchixonasi va Bonn shahar meriyasi bilan birgalikda Germaniyaning Bonn va boshqa shaharlarida muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda tadqiqotchi Nasirov Davranbek Palvannazirovichning “O'zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqini tamoyillari” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotining xulosa va tavsiyalaridan foydalanilgan. (“German-Usbekische Gesellschaft e.V.” jamiyatining 2024-yil 24-noyabrdagi ma'lumotnomasi). O'zbek va nemis lug'atshunosligida sotsiolingvistik variativlikka turlicha yondashilganlik, turli ijtimoiy qatlamlar va kasb egalarining nutqidagi farqlar, dialektal farqlar, sotsiolingvistik o'zgaruvchanlikning to'liq leksikografik talqini kabi tamoyillar bilan belgilanadi. Sotsiolingvistik variativlikning to'laqonli leksikografik talqini maksimal inklyuzivlik, ijtimoiy va mintaqaviy stratifikatsiya, autentik fiksatsiya, semantik tenghuquqlilik, qo'llanish shartlari va foydalanuvchiga yo'naltirilganlik kabi tamoyillar bilan belgilanishi borasida olingan natijalar mazkur madaniy va ma'rifiy dasturlarning mazmunini boyitishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, metodlari, tadqiqot ob‘yekti, predmeti, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sotsiolingvistik variativlikni leksikografik talqin qilishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sotsiolingvistik variativlik tushunchasi, uni yuzaga keltiradigan ijtimoiy omillar ochib berilgan. Sotsiolingvistik variativlikni leksikografik talqin qilish funksiyalari va tamoyillari tasniflangan.

Variativlik termini (lot. *variativus* – o‘zgaruvchanlik) ijtimoiy tilshunoslik faniga lisoniy birliklarining stilistik xususiyatlarida namoyon bo‘luvchi xilmaxlilik tushunchasi asosida kiritilgan bo‘lib, til birliklarining jamiyatning turli qatlamlarida qo‘llanishi bilan bog‘liq lisoniy o‘zgaruvchanlik hodisasi sifatida ta‘riflanadi. Til variantlari ijtimoiy jihatdan shartlangan bo‘lib, formal o‘xshashlik tamoyiliga ko‘ra birlashtiriladi, bunda umumlashtirishning umumiy mezon sifatida so‘zlashuvchi muayan til variantini ongli ravishda tanlashi va asosiy lisoniy variant sifatida qo‘llashni baholashi xizmat qiladi.

Lingvistik adabiyotda lingvistik variativlikning sinonimi sifatida lisoniy variabellik va variantlilik terminlari ishlatiladi. Lisoniy variativlik, variabellik va variantlilik bu aynan o‘xshash bo‘lmagan tushunchalardir: variabellik – bu adabiy tilga tegishli bo‘lgan lisoniy birliklarining variatsiyalanish qobiliyati, variativlik – bu lisoniy birliklarning ushbu qobiliyatini adabiy til ishlashining ma‘lum bir, odatda zamonaviy, bosqichida amalga oshirilishi, variantlilik – adabiylik/noadabiylik, zamonaviylik/eskirish, to‘g‘rilik/noto‘g‘rilik, umuman me‘yorlik/nome‘yorlik belgilari bo‘yicha variantlar korrelyasiyasini (munosabatdorligini) namoyon bo‘lishi. Variantlilik variativlikning tarixiy evolyusiyasi natijasidir. U nafaqat lisoniy, balki ijtimoiy hodisa. Tilning ijtimoiy hodisa sifatida turli sosiumlarda qo‘llanilishi uning fonetik, leksik, grammatik tuzilishiga ta‘sir o‘tkazadi va natijada o‘ziga xos lisoniy o‘zgarishlar yuz beradi.

Lisoniy variativlik va variantlilikning ko‘plab ko‘rinishlari orasida sotsiolingvistik variativlik alohida o‘rin egallaydi. Sotsiolingvistik variativlik ijtimoiy tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri bo‘lib, tilda ijtimoiy shartlangan lisoniy birliklarning mavjudligi bilan belgilanadi. Bunday lisoniy birliklar o‘z ijtimoiy belgilariga ko‘ra stratifikasion variativlik va situativ variativlikka ajratiladi. Stratifikasion variativlik jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, turli ijtimoiy qatlam vakillari orasidagi lisoniy farqlarda kuzatiladi. Situativ variativlik so‘zlashuvchining nuqtai-nazaridan muayyan muloqot vaziyatiga eng mos, samarali lisoniy birliklar tanlanishi bilan xarakterlanadi¹⁷.

¹⁷ Словарь социолингвистических терминов. / Отв. ред. В.Ю. Михальченко. – М.: 2006. – С. 199.

Ta'kidlash joiz-ki, lisoniy birliklarning sotsiolingvistik o'zgaruvchanligi tilning ijtimoiy tabaqalanishiga olib keladi.

Milliy tilning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'p. Biroq ularning orasida eng yetakchilik qiluvchi yosh, jins, ma'lumot, ijtimoiy mavqe kabi ijtimoiy omillardir. Aynan ijtimoiy omillar har bir shaxs va butun sosium, jamiyatning nutqiy xulq-atvorini va umuman nutq faoliyatini belgilaydi. Tilning ma'lum bir shakli va til me'yori o'rtasidagi nomuvofiqlik darajasini ko'rsatadigan sotsiolingvistik variativlik har qanday til variantidan foydalanish chastotasi va uning variantlarini o'z ichiga oladi. Bunda sotsiolingvistik variativlik marker, indikator va stereotip tushunchalari bilan izohlanadi.

Sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqinining maqsadlaridan biri nafaqat standart tilni, balki uning turli ijtimoiy guruhlarda qo'llaniladigan turli variantlarini ham aks ettiruvchi lug'atlar yaratishdir. Ijtimoiy tilshunoslik doirasida lisoniy variativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning tahlili til birligi va uning variantlari leksikografik tavsifining muayyan mazmuni va tuzilishini aniqlashga imkon berdi:

1. Til birligi va uning ma'nolari talqini taqdimoti.

2. Til birligi stilistik xususiyatlarining taqdimoti:

a). Til birligi qo'llanishining funksional-stilistik jihatdan chegaralanganligi va baho yoki emotsional munosabatni ko'rsatadigan stilistik belgilar (*so'k.*, *kest.*, *nafr.*, *hazil*, *haqr.*, *erkl.*, *dag'l.* va boshqalar) mavjudligi; b). Stilistik belgilarning ikki turi mavjudligi: tabaqalanish, tarixiy-stilistik; v). Jargonlashgan so'zlashuv nutq, kichraytiruvchi, hazil, ma'qullovchi, hurmat, istehzoli, kamsitish, nafrat, kesatik, dag'al, qo'pol, so'kinish, salbiy, noma'qul va ta'qiqlangan ekspressiya (invektiv) ko'rsatkichlari.

3. Variativ sotsiolingvistik me'yorning ta'rifi:

a). Adabiy til va sotsiolekt me'yorlari; b). Variantdan foydalanish xususiyatlari: milliy til / adabiy til / geolekt (regiolekt, dialekt, mahalliy til) / pidjin (prepidjin, pidjin- jargon, kreollashgan pidjin).

4. Sotsiolekt xususiyatlarining taqdimoti: etnosotsiolekt / sotsiolokalekt / etnosotsiolokalekt / submadaniy sotsiolekt.

5. Sotsiolektning leksikologik xususiyatlari taqdimoti:

a). Adabiy me'yordan fonetik, morfologik, sintaktik va semantik chetlanishlar; b). Til variantining lokalizatsiyasini (mahalliy-hududiy, etnik) ko'rsatish; v). Til variantining leksik xususiyatlarini ko'rsatish va uni so'zlashuv (adabiy / past) / umumiy slyengizmlar / vulgarizmlar / korporativ jargonlar / professional jargonlar / ezoterik jargon / marginal subkulturalar sifatida tasniflash.

Til birligi va uning variantlari leksikografik talqinining mazmuni va tuzilishidan kelib chiqib, biz sotsiolingvistik variativlikni leksikografik talqin qilish quyidagi vazifalarni bajarishini aniqladik:

1. Til birligini belgilash, uni alohida so'z, so'z birikmasi, gap sifatida taqdim etish.

2. Til birligining xususiyatlarini aniqlash:

a). Imlo xususiyatlari, b) orfoepik xususiyatlar, v) grammatik xususiyatlar.

3. Stilistik xususiyatlarni belgilash:

a). Funktsional-stilistik; b) ijtimoiy-stilistik; v) axloqiy-stilistik.

4. Ta'rif izohini berish:

a). Adabiy / so'zlashuv sinonim va / yoki ularning birikmasi; b) mufassal yoritilgan lingvistik talqin; v) filologik ta'rif.

5. Til birligining sotsiolingvistik xususiyatlarini ochib berish:

a). Areal; b) ma'lum bir sosialekt sohiblari sotsiumini ko'rsatadigan til variantining ijtimoiy-kasbiy xususiyatlari (harbiy / avtomobil / qurilish va boshqalar); v) mashg'ulot turiga, qiziqishlariga qarab sosialekt sohiblari sotsiumi (maktab / yoshlar va boshqalar) ni ko'rsatadigan til variantining ijtimoiy-korporativ xususiyatlari; d) ma'lum bir jargon sotsiumi (hipplar / panklar / giyohvandlar va boshqalar) ni ko'rsatadigan til variantining ijtimoiy-submadaniy xususiyatlari; e) ma'lum bir sosialekt sohiblari sotsiumini ko'rsatuvchi til variantining ijtimoiy-etnik xususiyatlari (mayda millatlar slengi); f) til variantining paydo bo'lishi, ishlatilishi va qo'llanishdan chiqish davri yoki muayyan vaqtini ko'rsatadigan tarixiy-davriy xususiyatlar;

6. Til variantining qo'llash kontekstini taqdim etish (jonli nutq / badiiy asarlar va h.k.lar misolida).

7. Etimologik izoh berish. Etimologik izoh til variantining quyidagi xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi:

Til variantining shakl va mazmuni rivojlanishi; til variantining so'z yasash va leksik-semantik jihatlari; til variantining manbasini, sosialekt sohiblari sotsiumida fonetik / grafik / morfologik / semantik jihatdan moslashishidagi xususiyatlarni aniqlash.

8. Lingvomadaniy va lingvomamlakatshunoslikka oid sharh berish.

Turli sosialektlarning katta miqdordagi lug'at boyligi, uning asosiy xususiyati bo'lgan sotsiolingvistik variativlikning mavjudligi ma'lum bir so'zning leksikografik talqini uchun tegishli tamoyillarni tanlash bilan duch keladi, bu esa bir qator sabablarga bog'liqdir: birinchidan, til birligini tavsiflashda leksikografiyaning umumiy tamoyillarini hisobga olish zarurati, lekin ular birinchi navbatda adabiy til normalariga qaratilgan; ikkinchidan, sosialektning so'z boyligi cheklanganligi sababli lug'at tanlash doirasi cheklanganligi; uchinchidan, empirik materialni tanlash va tizimlashtirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan muayyan sosialektning lisoniy variantlarini til me'yoridan tashqarida ko'rib chiqish zarurati; to'rtinchidan, dialekt, xalq tili, kasbiy sosialektlarni aniqlash uchun mavjud leksikografik amaliyotlarni o'rganish zarurati.

Turli lug'atlardagi ma'lum bir sosialekt sohiblarining nutqini aks ettiruvchi lug'at maqolasining tuzilishi va mazmunining tahlili shuni ko'rsatdiki, sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqinining asosiy tamoyillari leksik material manbalarini muvofiq tanlash, illyustrativ material mazmuni, leksik polisemiya, sotsiolingvistik o'zgaruvchilarni aks ettirish, lug'at maqolasining tuzilishi kabi tamoyillardan iborat. Umuman olganda, sotsiolingvistik variativlikning leksikografik talqini til birligini va uning tavsifini belgilash (imlo, orfoepik, grammatik), stilistik xususiyatlarini aniqlash, ta'rifini izohlash, til birligi va uning variantlarining sotsiolingvistik xususiyatlari yoritish, qo'llash kontekstini

ko'rsatish, shuningdek, etimologik, lingvomadaniy va lingvomamlakatshunoslikka oid sharhlarni taqdim etishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik variativlikning tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida chog‘ishtirilayotgan tillar izohli lug‘atlari materialining statistik tahlili asosida sotsiolingvistik o‘zgaruvchilar yoritilgan, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari asoslangan.

Sotsiolingvistik o‘zgaruvchilar tilning turli ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishini va ijtimoiy omillarga qarab qanday farq qilishini namoyon qiladi va shu bilan birga tilning jamiyat bilan bog‘liqligi va undan ijtimoiy-madaniy ma’nolarni ifodalash uchun foydalanish imkoniyatlarini o‘ziga aks ettiradi. Sotsiolingvistik o‘zgaruvchilar negizida ijtimoiy mavqe, yosh, jins, etnik kelib chiqishi, ta’lim, hududiy mansublik, kasbiy maqom, ijtimoiy guruh kabi nutqning ijtimoiy parametrlari mujassamlashadi.

Chog‘ishtirilayotgan o‘zbek va nemis tillarida sotsiolingvistik o‘zgaruvchilarni o‘rganish maqsadida A.Madvaliyev tahriri ostidagi 5 jildli **“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”**¹⁸ hamda **“Deutsches Universalwörterbuch: Das umfassende Bedeutungswörterbuch der deutschen Gegenwartssprache”**¹⁹ nemis universal izohli lug‘ati tahlilga tortildi va ularda qayd etilgan ijtimoiy-madaniy bo‘yoqdorlikka ega o‘zbek tilida 8903 ta, nemis tilida esa 72452 ta variantlar aniqlandi. Tadqiqot natijasida til variantining emosional-stilistik markerlanganlik (vulgar, kamsitish, yuqori va h.k.), funksional-uslubiy bo‘yoqdorlik (so‘zlashuv, kasbiy, badiiy va h.k.), qo‘llanish chastotasi (eskirgan, kam ishlatiladigan), qo‘llanishning cheklanganligi: hududiy (dialekt va regiolektlar), ijtimoiy (jins/yosh, kasbiy soha, faoliyat turi, maqom-rol munosabatlari), til egalari uchun tarixiy/milliy ahamiyat, muayyan tarixiy davr bilan xronologik bog‘liqlik kabi turli sotsiolingvistik o‘zgaruvchilar aniqlandi [1-jadvalga qarang].

1-jadval

O‘zbek va nemis tillari izohli lug‘atlarida sotsiolingvistik o‘zgaruvchilar

Sotsiolingvistik o‘zgaruvchi	A.Madvaliyev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”		“Deutsches Universalwörterbuch: Das umfassende Bedeutungswörterbuch der deutschen Gegenwartssprache”	
	sonda	foizda	sonda	foizda
Emosional-stilistik markerlanganlik	246	2.76%	6374	8.8%
Funksional-uslubiy bo‘yoqdorlik	2355	26.45%	7218	9.96%
Qo‘llanish chastotasi	34	0.38%	1807	2.5%

¹⁸ Ўзбек тили изоҳли луғати / А.Мадвалиев таҳр. ост. 1-5-томлар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

¹⁹ Deutsches Universalwörterbuch: Das umfassende Bedeutungswörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. – Duden, 2019. – 2144 s.

Qo'llanishning cheklanganligi:				
1. <i>Hududiy cheklanganlik</i>	1172	13.16%	35672	49.24%
2. <i>Ijtimoiy cheklanganlik:</i>				
- jinsi va yoshiga ko'ra	44	0.49%	698	0.96%
- kasbiy sohada qo'llanish bo'yicha	3087	34.68%	19134	26.41%
Til egalari uchun tarixiy/milliy ahamiyatga egaligi	281	3.16%	96	0.13%
Tarixiy davr bilan xronologik bog'liqlik	1684	18.92%	1453	2%
Jami:	8903	100%	72452	100%

Jadvaldan ko'rinib turganidek, "Emosional-stilistik markerlanganlik" sotsiolingvistik o'zgaruvchisi o'zbek va nemis tillari lug'atlaridagi lisoniy variantlarning umumiy (100%) foiziga nisbatan quyidagicha taqdim etilgan: o'zbek tilida – 246 ta, ya'ni 2.76%; nemis tilida – 6374 ta (8.8%) til variantlari. Masalan, o'zbek tilida: *onajon (erkl.)*, *bolakay (kichr-erkl.)*; nemis tilida: *abschleppen (salopp, scherzh.)*. Bu guruhda til variantlarining eng ko'p soni salbiy konnotatsiyalarda taqdim etilgan, ularni ikkala tilda ham kuzatish mumkin. Masalan, o'zbek tilida: *yashshamagur (qarg'.)*, *va'daboz (salb.)*, *dalla (nafr.)*; nemis tilida: *kuckuck (iron)*, *glatt wie ein Aal sein (abwertend)*, *gras (spött.)*.

O'zbek tilida til variantlari faqat ikki guruhga – yuqori uslub va so'zlashuv uslubiga ajratilgan bo'lsa-da, "Funksional-uslubiy bo'yoqdorlik" sotsiolingvistik o'zgaruvchisi o'zbek tilida nemis tiliga nisbatan ko'proq darajada amalga oshiriladi – 2355 ta variant (26.45%), holbuki nemis tilida bu ko'rsatkich 7218 ta til variantini (9.96%) ni tashkil etadi va she'riy va so'zlashuv til variantlarining o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida: *bema'no (yuq. usl.)*, *shiru shakar (ad.)*; nemis tilida: *renitent (geh.)*, *gischt (fachspr.)*.

"Qo'llanish chastotasi" sotsiolingvistik o'zgaruvchisi o'zbek tilida nemis tiliga nisbatan ko'proq darajada namoyon bo'ladi – 34 ta (0.38%) til varianti, nemis tilida bu ko'rsatkich 1807 ta (2.5%) til variantini tashkil etadi. Masalan, o'zbek tilida: *bo'limli (kam. qo'll.)*; nemis tilida: *futter (Selten)*. O'zbek tili izohdi lug'atidagi bu farqlar turkiy tillarning o'zaro ta'siri, 20 asr oxirida til adabiy me'yorini saqlab qolish harakati, tilni o'zlashtirilgan so'zlardan tozalash, eski o'zbek, arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarni faol almashtirishga qaratilgan amallar bilan asoslash mumkin.

"Qo'llanishning cheklanganligi" sotsiolingvistik o'zgaruvchisi quyidagicha amalga oshiriladi: hududiy cheklangan qo'llanish (dialektlarning mavjudligi) bo'yicha o'zbek tilida 1172 ta (13.16%), nemis tilida esa 35672 ta, ya'ni 49.24% til variantlari taqdim etilgan. Masalan, o'zbek tilida: *yurum (shv.)*; nemis tilida: *abkratzen (mundartl.)*. Cheklangan qo'llanishning hududiy mezon bo'yicha taqsimlanishi har ikkala tilda shevalarning ko'p bo'lishi bilan bog'liq, biroq nemis tilida 29 dialektlarning tarmoqlangan tuzilishini aniqlash mumkin bo'lsa, o'zbek

tilida murakkab arab-fors ta'siriga ega bo'lgan 4 ta sheva ajratiladi. Ijtimoiy belgilari, aynan, jinsi va yoshiga ko'ra o'zbek tilida – 44 ta (0.49%), nemis tilida – 698 ta (0.96%), masalan, o'zbek tilida: *girgitton (x.-q.), po'm (bol.);* nemis tilida: *abi (Schülerspr.), abmurksen (Studentenspr.);* kasbiy sohada qo'llanish bo'yicha o'zbek tilida – 3087 ta (34.68%), nemis tilida – 19134 ta (26,41%) til variantlari. Masalan, o'zbek tilida: *qushtomoq (anat.), peshtoq (arxit.);* nemis tilida: *ozon-schicht (Meteorol.), bocksbart (Bot.), besolden, besoldete, besoldet: (einem Soldaten, einer Soldatin).*

Kasbiy soha bo'yicha qo'llash cheklanganligi har ikkala til lug'atlarida keng yoritilgan. Biroq mazmun jihatidan nemis tilidagi til variantlarining ko'p qismi quyidagi sabablarga ko'ra yetakchilik qiladi: birinchidan, izohli lug'at til egalarining ko'pchiligiga tanish bo'lgan leksikaga yo'naltirilganligi tufayli, ikkinchidan, nemis tilida ishbilarmonlar uslubi, o'zbek tilida esa so'zlashuv uslubi nisbatan keng tarqalganligi tufayli. O'zbek tilida qarindosh-urug'chilik munosabatlari, oilaviy o'zaro yordam va qadriyatlar katta ahamiyatga ega, shuning uchun kasbiy maxsus til variantlari unchalik xilma-xil emas.

“Til egalari uchun tarixiy/milliy ahamiyatga egaligi” sotsiolingvistik o'zgaruvchisi har ikkala tilda ham mavjud: o'zbek tilida – 281 ta (3.16%), nemis tilida – 96 ta (0.13%) til variantlari. Masalan, o'zbek tilida: *xazrat (din);* Ikkala tilda ham til me'yorlari va an'alarini saqlashga intilish kuzatilsa-da, o'zbek tili lug'atida mifologik, diniy, etnik xarakterdagi til variantlari ko'proq tavsiflangan, buni esa xalq uchun muhim tarixiy voqea va hodisalarni tushuntirishga harakat bilan izohlash mumkin.

“Tarixiy davr bilan xronologik bog'liqlik” sotsiolingvistik o'zgaruvchisi o'zbek tilida – 1684 ta til variantlari, ya'ni 18.92%, nemis tilida – 1453 ta (2%). Masalan, o'zbek tilida: *nechukkim (eks.), abbosiylar (tar.);* nemis tilida: *bein (landsch., südd., österr. auch: -er).* O'zbek tili izohli lug'atida tarixiy, eskirgan xarakterga ega bo'lgan so'zlarni ifodalash nafaqat leksikani vaqt me'yori nuqtai-nazaridan baholashga, balki ushbu qatlam so'zlarining ona tilida so'zlashuvchilar uchun qanchalik muhimligidan, hozirgi zamon o'zbek tilining muayyan sohalarida uchrashidan dalolat beradi.

Umuman olganda, A.Madvaliyev tahriri ostidagi 5 jildli “O'zbek tilining izohli lug'ati” da turli til variantlarini sotsiolingvistik jihatdan tavsiflashda ayniqsa turli kasbiy guruhlar vakillarining kundalik so'zlashuv tiliga oid variantlarning keng taqdimoti keltirilgan. Sotsiolingvistik o'zgaruvchilarni aks ettirishda katta e'tibor lug'atda asosan ijtimoiy-hududiy va funksional-stilistik bo'yoqdorlikka hamda lisoniy birliklarni xronologiy tavsifiga qaratilgan. Lisoniy variantlardan foydalanish chastotasi, til sohiblari uchun til variantining milliy-madaniy (diniy, etnik) ahamiyati, jins-yoshga oid variantlar lug'atda kam yoritilganligini, fikrimizcha, bu borada o'zbek tilshunosligida yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi bilan izohlash mumkin.

Nemis tilida “Deutsches Universalwörterbuch: Das umfassende Bedeutungswörterbuch der deutschen Gegenwartssprache” lug'ati materialida aniqlangan sotsiolingvistik o'zgaruvchilarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ular ijtimoiy-hududiy va funksional-stilistik bo'yoqdorlik mavjudligi, lisoniy

